

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 9 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI .....	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ .....	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI .....	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....	65-68

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLUKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI .....	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ .....	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS .....	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	139-144
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI .....	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ .....	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	171-176
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA .....	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI .....	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI .....	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI .....	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES .....	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI .....	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	239-242
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Tўлаганова Гулчехра Захитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR .....	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjanoich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	263-266
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) .....	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI .....	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI .....	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .....	293-301



<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....	302-308
<i>Матажонова Гулноза Каримовна</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI .....	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'ribojevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI .....	357-362
<i>Utkirov Abbas Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY .....	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

**07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**

**Received:** 30 August 2024

**Accepted:** 5 September 2024

**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

**THE PLACE OF THE CORTEZ IN THE PUBLIC LIFE OF THE PYRENEAN PENINSULA IN THE HIGH MIDDLE AGES**

**Khaynazarov Bahromjon**

Associate Professor of the Department of World History, NUUz. DSc in historical sciences,  
Associate Professor

E-mail: [bahrom\\_bek@mail.ru](mailto:bahrom_bek@mail.ru)

**Abstract.** The article examines the role of the Cortes in the public life of the Pyrenean peninsula in the developed Middle Ages, in particular the emergence of the Cortes in countries such as Castile, Aragon, Navarre and Portugal, their activities, their importance in the political life of the country, the formation and development of the Cortes, their role in training personnel for public administration, social - attempts to train personnel suitable for economic transformations, analyzed such issues as the participation of the population of the Iberian Peninsula in these processes.

**Keywords.** Pyrenean peninsula, Cortes, Spain, Castile, Aragon Navarre, Portugal Andalusia.

**RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI**

**Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich**

O'zMU "Jahon tarixi" kafedrasida dotsenti, tarix fanlari doktori, dotsent

E-mail: [bahrom\\_bek@mail.ru](mailto:bahrom_bek@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada rivojlangan o'rta asrlarda Pireney yarim orolidagi korteslarning jamiyat hayotidagi o'rni, xususan, Kastiliya, Aragon, Navarra va Portugaliya kabi davlatlarda korteslarning vujudga kelishi, ularning faoliyati, mamlaka siyosiy hayotidagi ahamiyati, korteslar faoliyati yo'nalishlarning shakllanishi va rivojlanishi, davlat boshqaruvi uchun kadrlar tayyorlashdagi o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga mos kadrlar tayyorlash yo'lidagi urinishlar, ushbu jarayonlarda Pireney yarim oroli aholisining ishtiroki kabi masalalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Pireney yarim oroli, kortes, Ispaniya, Kastiliya, Aragon Navarra, Portugaliya Andalusiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N01>

Rivojlangan o'rta asrlarning o'rtalariga kelganda Pireney yarim orolida rekonkista harakati ma'lum muddatga to'xtadi. Arablarning yarim oroldagi oxirigi mulki hisoblangan Granada 1340 yildagi Salado jangida xristian qo'shinlaridan yengilganidan keyin, qolaversa shimoliy Afrikadagi berberlarning Al – Andalusiyaga yordam bermay qo'yishlari natijasida o'z taqdirini o'ylab shimoldagi xristian qo'shinlari bilan tinchlikda yashashga harakat qilishdi. Kastiliya va Aragon bo'lsa doimo bir – birining chegaralari uchun kurashlarga kirishadi. Yarim oroldagi to'rtta xristian davlatlaridan Navarra va Portugaliya alohida-alohida rivojlandilar.

Kastiliya va Aragon Pireneya yarim orolining ikkita asosiy davlati bo'lib, pirovardida ular yagona qirollikka birlashdilar. Bu birlashgan davlatlarning o'rta asrlar davridagi tarixi o'zining bir qancha xususiyatlariga egadir. Kastiliya qirolligi yarim orolda eng katta hududni egallagan edi. Yarim oroldagi hududning deyarli beshdan uch qismi uning hissasiga tushar edi. Rekonkistada ham Kastiliya eng aktiv qatnashgan edi. Kastiliya tili keyinchalik ispan milliy adabiy tiliga asos bo'ldi. Pireney yarim orolidagi ushbu davlatlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida korteslarning o'rni o'sib borgan.

Xususan, o'rta asrlar davridagi Kastiliyaning ijtimoiy tuzumi o'ziga xos ko'pgina xususiyatlarga ega zdi. Kastiliyaning urushqoq dvoryanlari mamlakatda katta ta'oirga ega edilar. Arablar bilan kurashda qatnashish dvoryanlarning ertaroq toifa bo'lib tarkib topishiga va dvoryanlar ko'pchiligining bevosita qirol bilan aloqa o'rnatishiga yordam berdi. Kastiliyada katolik cherkovi ham juda katta ta'sirga ega edi, rekonkista natijasida katolik cherkovi ko'p yer oldi. Kastiliyada rekonkistaning butun og'irligini o'z zimmasiga olgan o'nlab erkin shahar-kommunalar bor edi. Hunarmandlar va mayda savdogarlardan iborat bo'lgan shaharliklar butun asrlar davomida muntazam harbiy xizmat o'tadilar. Kastiliya shaharlari shaharlarning alohida harbiy ittifoqlariga — ermandilarga birlashdilar. Kastiliya dehqonlari ham rekonkistada juda aktiv qatnashganliklari sababli krepostnoy qaramlikdan ertaroq xalos bo'ldilar. Kastiliya feodallari dehqonlar bilan hisoblashishga va ularga jiddiy yon berishga majbur bo'ldilar. Eski va yangi Kastiliyaning ko'pchilik dehqonlari erkin jamoatchilardan iborat (begetriyalar) bo'lib, feodallar homiyligida kun ko'rardilar va ularga odat bo'yicha bitim bilan belgilangan kichik miqdorda obrok to'lardilar[6;158-b.].

Kastiliya shahar va qishloq jamoalarining siyosiy ahamiyati Kastiliyada umumtoifa vakilligi, ya'ni korteslarning ertaroq vujudga kelishida ochiq-oydin namoyon bo'ldi.

Dastlabki korteslar xuddi qirol kengashlari singari doimiy tarzda chaqirilmagan va ularning sessiyalarida aniq tartib o'rnatilmagan. Qolaversa, ayrim qirollar korteslarni har ikki-uch yilda bir marotaba chaqirishga intilganlar. Hech kim xoh u dvoryanlar yoki munitsapalitet (o'z-o'zini boshqaruvchi yoki erkin shaharlar) vakillari yoki bo'lmasam ruhoniylar tabaqasiga mansub kishi bo'lsin o'z-o'zining xohishicha kortes qatnashchisi bo'lolmagan. Qirol har doim ham bir xil kishilarni kortesga chaqirmagan, shuning uchun ham kortes tarkibi doimiy bo'lmagan va u doimiy tarzda o'zgarib turgan. Vaqt o'tishi bilan kortesdagi shahar vakillari bo'yicha ma'lum bir qoidalar ishlab chiqilgan. Ma'lum bir erkin shaharlarga korteslarga o'z vakillarini jo'natish huquqi berilgan. Huddi shunday huquqlar dvoryanlar va ruhoniylar orasida ham yo'lga qo'yilgan. Dvoryanlar va ruhoniylar kortes yig'lishlarida bitta ovoz berish huquqiga ega bo'lganlar. Syudadonas (ciudadanos-fuqaro), ombres buyenos, personers, mendaderos va keyinchalik prokurador deb ataluvchi munisipalitet vakillarining korteslardagi soni shaharlar miqdoridan kelib chiqib ko'p bo'lgan va ular kortes yig'ilishlariga o'z deputatlarini yuborgan. Ayrim shaharlar kortes qoidalariga bo'ysunmagan holda o'z shaharlaridan ikki-uch yoki undan ortiq vakillarni jo'natishardi. Chunki korteslarga taklif shahar nomiga berilgan. Shaharlarning o'zi kortesga kimni yuborishni hal etgan. Boradigan shaxs shu shaharlardagi saylov yoki qur'a yo'li bilan, shuningdek navbat tartibi bilan tanlangan[6;165-b.].

Korteslar o'z tartibiga ko'ra maslahat beruvchi organ bo'lgan. Korteslar qonun chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar, garchi ular qirolga o'z petitsiyalarini taqdim etish huquqiga ega bo'lsalar ham. Shunday bo'lsa ham ayrim masalalarni hal etish ularning vakolatlari doirasiga kirgan. Jumladan, qirol so'ragan ayrim soliqlarni yig'ishga ruxsat bergan. Undan tashqari

mamlakat ichki siyosati bilan bog'liq bo'lgan monarx tomonidan qabul qilingan qarorlarni ratifikatsiya qilish, regentlik kengashini tuzish, taxt merosxo'ri masalalarini ham muhokama qilgan. Kortes huzurida qirol davlatning qonunlari va fuyerosga sodiqlik haqida qasamyod qilgan. Kortestlardagi har bir tabaqa vakillari o'zlarining ko'rsatmalar to'plamini tuzishgan (yenadernos), bu ko'rsatmalarga har bir tabaqa vakillari - shaharliklar, ruhoniylar, dvoryanlar o'z tavsiyalarini, shikoyatlarini va takliflarini kiritganlar. Ko'rsatmalar qirolga taqdim etilgan va qirol ularni ko'rib chiqib u yoki bu qarorni qabul qilgan. Lekin doim ham qirol kortestlarga bergan va'dalarining ustidan chiqmagan. Urush bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda qirol kortestlar bilan hisoblashib o'tirmagan[1;186-b.]. Kortestlar o'z faoliyatini 1188 yildayoq (ingliz parlamenti va fransuz General shtatlaridan ancha oldin) boshlagan edi, shu bilan birga uchinchi toifa vakillari sostaviga shaharliklar bilan birgalikda dehqonlarning ham ba'zi bir vakillari kirgan edi. Kastiliyadagi qirol hokimiyati shaharlarga tayanib turib, XIII asrdayoq o'z obro'-e'tiborini kuchaytirishga harakat qildi va yirik feodallar bilan qattiq kurash olib bordi.

Kortes majlislari odatda yopiq holatda o'tkazilgan va undagi tabaqalar o'zlari bilan bog'liq ishlarni tabaqasi bilan birgalikda alohida muhokama qilgan. Majlis qatnashchilari va qirol o'rtasidagi aloqalar elchilar (embajadores) yoki xabarchilar (mensajeros) yordamida olib borilgan[1;186-187-b.].

Kortesning birinchi yig'lishida qirol dastavval barcha yig'ilganlarni qutlab so'ng ularni o'z vazifalarini chin ko'ngil bilan bajarishga dav'at etgan, keyin yozma yoki og'zaki ravishda ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan vazifalarni kortes ishtirokchilariga taqdim etgan. Kortest vakillari qirolga ruhoniylar yoki o'z vakillari orqali javob qaytarishgan. So'nggi majlisda odatda qirol qisqacha so'zga chiqqan.

Kortestlarni umumtabaqaviy muassasa deb tan olishning birinchi sharti unda yuqorida keltirib o'tgan tabaqa vakillarining ishtirok etishlari bo'lgan. Xo'sh, ispan kortestlarida qaysi tabaqalar qatnashgan. Ispaniya kortestlarida birinchi tabaqaning Fransiya shtatlaridan farqli ravishda dunyoviy feodallar (yestado militar) tashkil etgan. Ularning birinchi navbatdagi vakillari rikos ombreslar bo'lishgan. Aftidan qirol ularni maxsus ravishda taklif etgan. Xronikalardagi ma'lumotlarga ko'ra, 1241 yilda Burgosdagi kortesda qirol «rikos ombres va yer odamlari bilan» majlis o'tkazgan. «Yer odamlari» deganda mustaqil faoliyat yuritishni qo'lga kiritgan shahar va qishloq jamoasi vakillarini tushunish mumkin. Birinchi tabaqaning quyi bo'g'inlarini tashkil etuvchi amaldorlar – infansonlar, idalgolar birinchi marta 1250 yilgi kortest yig'ilishlarida paydo bo'ldi va keyingi yig'ilishlarda muntazam ishtirok etadigan bo'ldi[5;132-b.]. Fransiyadagi ruhoniylar tabaqasidan farqli ravishda ispan kortestlaridagi ruhoniylar tabaqasi ham xuddi birinchi tabaqa singari ikki kategoriyaga – qatlamga bo'lingan va birgalashib ikkinchi tabaqani tashkil qilgan. Ulardan yuqori qatlamga Santyago, Toledo va Sevilya arxiyepiskoplari, yepiskoplar, abbatlar va diniy – harbiy ordenlar magistrarlari mansub bo'lgan. Quyi kategoriyaga kapitullar kliriklari va quyi pag'ona ruhoniylari kirgan. Ulardan birinchi kategoriya vakillari o'zalarining shaxsiy huquqlari evaziga bevosita kortestlar yig'ilishida ishtirok etgan bo'lsa, quyi pag'onadagilar o'zlarining vakillarini yuborishgan.

Dastlabki kortestlar yig'ilishining aniq bir shaharda o'tkazilishi qoidasi bo'lmagan. O'sha vaqtda qaysi shaharda qirol rezidensiyasi joylashgan bo'lsa, odatda shu shaharda kortest yig'ilishi o'tkazilgan. Ko'pincha XIII asrlar davomida Valyadolidda, Burgosda, Medine del Kampoda, Palensiyada kortestlar chaqirilgan.

Ba'zan kortestlarda ishtirok etuvchi deputatlarning ta'minoti yo'lga qo'yilgan. 1250 yilda

Fernando III Segoviyadan kelgan har bir deputat uchun agar yig'ilish Toledo va musulmonlar bilan chegara hududida o'tkazilsa kuniga bir maraveddan, agar Toledodan shimolda o'tkazilsa, kuniga yarim maraved to'lashni joriy qilgan[3;296-b.].

Kortes yig'ilishlarida ishtirok etgan shaharliklar vakillarining asosini odatda shaharning yuqori mansabdor qatlamlari tashkil qilgan. Kortoslarda savdogarlar va hunarmandlarning ishtiroki deyarli kuzatilmagan. Faqat birgina holatda, unda ham kortes yig'ilishida turli mahsulotlarning narxlari muhokama etilayotganligi uchun ham 1268 yilgi Xeresdagi kortesda savdogarlar toifasi qatnashgan.

Ba'zi hollarda kortoslarda qishloqlardan dehqonlar vakillari ham qatnashganligi ma'lum. Tadqiqotchi V.Piskorskiy 1268 yilda Xeresda o'tgan kortes yig'ilishi bayonnomasida keltirilgan qishloqlarning «mo'tabar kishilari»ni ana shu toifa vakillari deb hisoblaydi.

Garchi qirollar korteslar yig'ilishiga chaqirilgan deputatlarning shaxsi daxlsiziligini e'lon qilgan bo'lsa ham, ammo o'zaro urushlar sharoitida bunga to'liq rioya qilib bo'lmasdi. Masalan 1271 yilda Alfons X taklifiga magnatlar to'jonlarini omon saqlash mumkin bo'lgan umumiy xavfsizlikka erishilmaguncha kortes yig'ilishlarida qatnashmasligini ma'lum qilganlar.

Garchi korteslar faoliyati yo'lga qo'yilgan dastlabki asrlarda ularning yig'ilishlari muntazam bo'lmasa ham, lekin tez – tez chaqirilib turilgan. Alfons X davrida (1252-1254 – yy) jami 16 marta, Sancho IV davrida 5 bora korteslar chaqirilgan[4;197-b.].

XIII asrning ikkinchi yarmida qirol Alfons X (1252— 1284) qonunlar to'plami («Yetti qism» deb ataladigan) qonunlar to'plami (chiqardi), bu qonunlar to'plami Rim huquqi g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, o'rta asr Yevropasidagi qonunlarning birinchi umumlashtiruvchi to'plami edi. Alfons X o'zidan sal oldin Salamanka shaharida ta'sis etilgan universitetga homiylik qilib, davlat mablag'lari hisobiga shu shaharda observatoriya (rasadxona) qurdirdi. Uning davrida qirol hokimiyatining obro'si ancha ortdi. Ammo feodallar hali tinib-tinchimagan va o'zlarining imtiyozlariga qattiq yopishib olgan edilar.

Shu yillar davomida chaqirilgan korteslarning majlislari davomiyligi turlicha bo'lgan: o'n – o'n ikki kundan ikki oygacha cho'zilgan holatlar kuzatilgan. Fernando III davridan Leon va Kastiliyaning birlashgan korteslari chaqirila boshlangan. 1283 yildan hukmdorlar tabaqalar tomonidan norozilikka sabab bo'lmaslik uchun juda kam hollardagina har ikki sobiq davlatlarning korteslarini alohida chaqirgan. 1301 yilda Burgosda to'plangan faqat kastiliyaliklardan iborat kortesda qirol barcha qirollik hududlaridan birgalikda kortesga deputatlar chaqirishni so'ragan[2;67-b.].

Korteslar odatga ko'ra qirol tomonidan chaqirilishini aytgan edik. Ammo ba'zan bu qoidaga amal qilinmagan. Masalan 1282 yilda Valyadolidda kortes yig'ilishi taxt merosxo'ri masalasi uchun hech qanday monarx taklifisiz to'plangan. 1295 va 1313- yillardagi Vabyadoliddagi, 1312 yilgi Palensiyadagi korteslar yig'ilishini ham shu holdagi korteslarga kiritish mumkin[4;198-b.].

Keyinchalik mamlakat boshiga og'ir kunlar tushganida qirol korteslarga ko'proq imkoniyat berishga majbur bo'ladi.

Korteslar o'z faoliyatini boshlagandan so'ng, asta-sekinlik bilan ularning ichki reglamentlari (tartiblari) vujudga keladi. Reglamentga ko'ra kortes uchun umumiy belgilar belgilab qo'yiladi, unga ko'ra: korteslarning ochilish va yopilish marosimlari tantanaviy ravishda o'tkaziladigan bo'ladi. Bu marosimlarga qirol raislik qilgan. Keyingi kortes majlislari umumiy qoidalar asosida dvoryanlar yoki ruhoniylar qirol tomonidan raislikka tayinlangan.

Korteslarning qo'llab-quvvatlashiga qaramay, qirollar qudratli grandalarning kuch-qudratiga shikast yetkaza olmadilar. XIV va XV asrlarda korteslarning o'zi onda-sonda yig'iladigan bo'lib qoldi. Kastiliya qirollari ko'pincha feodallarningdushman guruhlarini shu feodallarning saroy bilan aloqador boshqa qismi yordamida, shuningdek, katolik cherkovi ko'magida yengishga umid bog'lab, shaharlar bilan har doim ittifoq bo'lishni izchil amalga oshiravermasdilar. Buning natijasida qirol hokimiyatining o'zi turli feodal to'dalarining kurash quroliga aylanib qolardi. 15 asrning ikkinchi yarmida Kastiliyadagi qirol hokimiyatining nochor ahvoliga yaqqol misol qilib qirol Genrix 4 (1454-1474) ni ko'rsatish mumkin. Genrix 4 ning butun hukmronlik davri o'zaro feodal kurashlari bilan to'lib tushgan edi. Zodagonlar qirolning qizi Xuananing taxt vorisligi huquqini tan olmay, qirolning singlisi malika Izabellaning nomzodini qo'yadilar. Zodagonlar kelajakda Izabellani o'zlariga rom qilib, undan itoatli qurol sifatida foydalanmoqchi edilar. Umuman olganda korteslar Pireney yarim oroli davlatlari hayotida jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi. keyinchalik monarxiya tizimining mustahkamlanishi va boshqa Yevropa mamlakatlaridagi kabi absolyutizmga intilishning kuchayishi ortidan ularning ahamiyati pasayib bordi. Bu esa jamiyatning xohishi emas, balki hukmron doiralarning hokimiyatni hech kim bilan bo'lishishni istamasligi bilan ifodalanar edi. Natijada Pireney yarim oroli aholisining o'z xohish irodasi ifoda qiladigan oliy organ amalda o'z ahamiyatini yo'qotib, hukmron doiralarning buyruqlarini so'zsiz amalga oshiradigan bir institutga aylanib qoldi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Рафаэль Альтамира-и-Кревеа: История средневековой Испании. Том 1. – Москва: Евразия, 2018. – 660 с.
2. Варьяш О. И. Пиренейские тетради. М.: Наука, 2006. 451 с.
3. Кеймен Г. Испания. Дорога к империи. М.: АСТ, 2008. – 768 с.
4. Корсунский А.Р. История Испании IX – XIII веков (социально экономические отношения I политический строй Астура-Леонского I Леона-Кастильского королевства). М., «Высшая школа», 1976.
5. Крылов К.Е. От реконкисты к конкисте — предпосылки создания испанской колониальной империи // вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 2, Вып. 1. 2014. – С. 131-141.
6. Кудрявцев А. Е. Испания в средние века. М.: Изд-во ЛКИ, 2007. 288 с.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).